

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI
OLIY MATEMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI KAFEDRASI**

Tasdiqlayman:

**«Oliy matematika va axborotlar
texnologiyalari» kafedrası
mudiri: _____ dos. X.Urdushev
« _____ » _____ 2014 y.**

**"INFARMATIKA VA AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI" FANIDAN
KURS ISHI**

**Mavzu: Internet tarmog'i qidiruv tizimlari
2013- 2014 o'quv yili**

Bajardi: _____
(f.i.sh) (imzo)
_____ *bo'limi*

1-bosqich _____ - guruh talabasi

Rahbar : _____
(f.i.sh) (imzo)

Komissiya raisi: _____

A'zolari: _____

Sana: _____

“Tasdiqlayman”
“Oliy matematika va axborotlar
texnologiyalari” kafedrası
mudiri _____ dos. X.Urdushev
« _____ » _____ 2014 y.

Informatika va axborot texnologiyalari fanidan
BAJARILADIGAN KURS ISHINI TOPSHIRIQ VA BAHOLASH VARAQASI
_____ (f.i.sh) _____ bo'limi,

1-bosqich _____ - guruh talabasi

Rahbar: _____

MAVZU TOPSHIRIG'I BO'YICHA VAZIFALAR:

1. **Operatsion tizimlar** mavzusidagi topshiriq

2. Dastlabki ma'lumotlar: Kurs ishi mavzusiga oid konspektlar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarni o'rganish, bajarish va o'zlashtirish

3. Foydalanilgan materiallar:

Kafedradagi 1) Informatika va axborot texnologiyalari fanidan elektron o'quv-uslubiy majmua; 2) <http://www.ziynet.uz>- axborot ta'lim tarmog'i resurslari va [3;5;15;18;26;28;29;39;45] adabiyotlar

4. Qo'shimcha vazifa va ko'rsatmalar Kurs ishida Internet tarmog'i qidiruv tizimlari mavzusida internetdan ma'lumotlar keltirilsin.

Kurs ishini topshirish muddati:

Talaba _____

(imzo)		(f.i.o)	(sana)		
1	2	3	4	Tushuntirish xati	Himoyaga ruxsat berildi, (ruxsat berilmadi)
Kurs ishi rahbarining imzosi					

Kurs ishini baholash	Maksimal ball, jami	Kurs ishini tayyorlash uchun, ball OB	Kurs ishini himoyasi uchun, ball JB	Kurs ishi himoyasida savollarga javob berish uchun ball OB
Kurs ishini baholash	100	0- 40	1- 30	1- 30
Talabaning to'plagan bali				

Rahbar _____

(imzo)

(f.i.sh)

(sana)

Mavzu. Internet tarmog'i qidiruv tizimlari

Kirish

I.Kurs ishining nazariy (referativ) qismi bo'yicha vazifalar:

- 1.Internet tarmog'i qidiruv tizimlari
- 2.Axborotlarni qidirish usullari
- 3.Internet axborot resurslari. Giperbog'lanish
- 4.Domen tushunchasi
- 5.IP texnologiyalar. Mobil internet texnologiyalari

6.Microsoft PowerPoint : animasiya masalalari; tovush, tasvir, matn va harakatlar uyg'unligini ta'minlash

Xulosa

II. Kurs ishining amaliy qismi bo'yicha vazifalar:

1(6). MS Excel dasturida hisoblanadigan iqtisodiy ko'rsatkichlarni keltiring. Berilgan boshlang'ich ma'lumotlarga ko'ra rentabellik, zarar, foyda boshqa ko'rsatkichlarini aniqlash: 22- vazifa.

2.Axborot jarayonlarini algoritmlash va dasturlash. Quyida berilgan masalani: 1) so'zli algoritmini tuzing; 2) blok-sxemali algoritmini tuzing; 3) dasturlash (Paskal) tilida-dasturli algoritmini tuzing; 4) Turbo-Paskal muhitiga dasturni kiriting va natijalarni tahlil qiling: 52-vazifa.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Informatika va axborot texnologiyalari. Akademik S.S.G'ulomov umumiy tahriri ostida. Darslik. T.: "Iqtisodiyot", –2009.

2. Ахборот тизимлари ва технологиялари: Олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик//Муаллифлар жамоаси: С.С.Ғуломов, Р.Х.Лутфуллаев ва бошқ. /С.С.Ғуломовнинг умумий таҳрири остида. –Т.: "Шарқ", 2000. – 529 б.

3. Информатика ва ахборот технологиялари: Олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик //Муаллифлар жамоаси: С.С.Ғуломов, Б.Ю.Ходиев, Б.А.Бегалов ва бошқ. / С.С.Ғуломовнинг умумий таҳрири остида. – Т.:, 2010. – 765 б.

4. Axborot texnologiyalari/Aripov M., Begalov B., Begimqulov Sh., Mamarajabov M.-T.: Noshir, 2009.-368 b.*

5. Informatika / Professor N.V.Makarova tahriri ostida.-T.: "Talqin", 2005. 344- b. *

6. Алимов Р, Ходиев Б, Алимов Қ ва бошқ. Миллий иқтисодда ахборот тизимлари ва технологиялари. -Т.: “Шарқ”, -2004.- 320 б.

7. Электронный учебник по TurboPascal. chm

Internet порталлар ва сайтлар

8. <http://www.gov.uz>- Ўзбекистон Республикаси ҳукумати портали.
<http://www.ziynet.uz>- ахборот-таълим тармоғи портали.

Kirish

I.Kurs ishining nazariy (referativ) qismi bo'yicha vazifalar:

1.Internet tarmog'i qidiruv tizimlari

Qidiruv tushunchasi. Internet tarmog'idagi qidiruv tushunchasi shuni anglatadiki, bunda har bir foydalanuvchi o'ziga kerakli bo'lgan biror ma'lumot yoki materialni maxsus qidiruv tizimlari orqali topish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Internet tarmog'i foydalanuvchilari qidiruvni Internet muhitida joylashgan veb-saytlar, ularning manzili va ichki ma'lumotlari bo'yicha olib borishi mumkin. Bu esa foydalanuvchiga kerakli bo'lgan axborotni samarali qidirish va tez topish imkoniyatini beradi.

Axborotlarni qidirish. Internet tarmog'i shunday bir muhitki u o'zida turli ko'rinishdagi va turli tillardagi ko'plab axborotlarni jamlagan. Bunda ushbu axborotlar ichidan kerakli bo'lgan ma'lumotlarni qidirib topish muammosi paydo bo'ladi. Internet tarmog'ida har bir foydalanuvchi axborotni qidirish uchun o'zbek, rus, ingliz yoki boshqa tillardagi bir yoki bir necha so'zdan tashkil topgan so'rovlardan foydalanadi. Ya'ni ma'lumotlarni uning sarlavhasi yoki uning tarkibida ishtirok etgan so'zlar va jumlar bo'yicha qidirib topish mumkin. Bunda foydalauvchi tomonidan Internet qidiruv tizimi qidiruv maydoniga kerakli ma'lumotga doir so'z yoki jumla kiritiladi va qidiruv tizimi ishga tushiriladi. Shundan so'ng qidiruv tizimi foydalanuvchiga o'zi tomonidan kiritilgan so'z yoki jumla mos keluvchi ma'lumotlarni qidirib topadi va kompyuter ekranida ularning ro'yxatini hosil qiladi. Vanihojat ro'yxatdagi ma'lumotlarni ketma-ket ko'rib chiqilib kerakli bo'lganlari kompyuterga saqlab olinadi.

Axborotlarni parametrlari bo'yicha qidirish. Ko'rib o'tilganidek, har bir foydalanuvchi Internet tarmog'i orqali o'ziga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni uning mavzusi hamda tarkibidagi so'z yoki jumla bo'yicha qidirib topishi mumkin, lekin Internet tarmog'ida ma'lumotlar shunchalik ko'pki, ta'kidlab o'tilgan usul samara bermasligi mumkin. Bunday hollarda Internet qidiruv tizimlari qidiruvning bir qancha qo'shimcha usullari bo'yicha qidiruvni taqdim etadi, bular:

- ma'lumotlarni uning tili bo'yicha qidiruv;
- ma'lumotlarni uning turi (matn, rasm, musiqa, video) bo'yicha qidiruv;
- ma'lumotlarni uning joylashgan mintaqasi bo'yicha qidiruv;
- ma'lumotlarni uning joylashtirilgan sanasi bo'yicha qidiruv;
- ma'lumotlarni uning joylashgan Internet zonasi bo'yicha qidiruv;
- ma'lumotlarni xavfsiz qidiruv.

Rasmlarni qidirish. Rasmlar ma'lumotlarning grafik yoki tasvir ko'rinishi hisoblanadi. Internet tarmog'ida grafik ma'lumotlarning ko'plab turlari uchraydi, ya'ni: chizma (vektor), foto (rastr), harakatlanuvchi (animasiya) hamda siqilgan rasmlar. Bunday grafik ma'lumotlar tarkibida matnli axborot mavjud bo'lmaydi.



Shundan ko'rinib turibdiki, demak rasm ko'rinishidagi ma'lumotlar ustida faqatgina uning nomi yoki turi bo'yicha qidiruv olib borish mumkin. Ko'pgina internet qidiruv tizimlari grafik yoki tasvir ko'rinishidagi ma'lumotlarni qidirish uchun alohida bo'linga ega bo'lib, bu bo'lim orqali ixtiyoriy turdagi rasmlarni ularning nomlari bo'yicha qidiruvni amalga oshirish mumkin. Masalan, quyidagi rasimga shunday qidiruv tizimlarining biri tasvirlangan.

Musiqalarni va filmlarni qidirish. Internet tarmog'ida matnli yoki rasm ko'rinishidagi ma'lumotlardan tashqari musiqa va video ma'lumotlarning ham ko'plab manbalari mavjud. Internet tarmog'i orqali har bir foydalanuvchi musiqa eshitishi, radio tinglashi, teledasturlar yoki videofilmlarni tomosha qilishi mumkin. Internet orqali radioeshittirish va teledasturlar namoyishi ma'lum, ushbu turdagi xizmatlarni taqdim etuvchi tizimlar (serverlar) tomonidan amalga oshiriladi. Internet orqali radio tinglash yoki teleko'rsatuvni tomosha qilish uchun ushbu tizimga bog'lanishni o'zi kifoyadir. Ammo musiqa va filmlar Internet tarmog'iga ulangan kompyuterlarda alohida material ko'rinishida saqlanadi. Ularni tinglash, tomosha qilish yoki kompyuterga ko'chirib olish uchun avvalo kerakligini qidirib topish zarur.

Musiqa va video materiallari ustida ham grafik (rasm) materiallar kabi uning nomi yoki izohi bo'yicha qidiruv olib borish mumkin. Bunda musiqa va filmlarni qidirib topish uchun qidiruv tizimi maydoniga materialning nomi yoki uning izohiga taaluqli biror jumla kiritiladi va qidiruv tizimi ishga tushiriladi. Shundan so'ng qidiruv tizimi tomonidan kiritilgan jumlagi mos keluvchi musiqa va video materiallar joylashgan veb-saytlarning ro'yhati shakllantiriladi. Ro'yxatdagi veb-saytlar foydalanuvchi tomonidan birin – ketin ko'rib chiqiladi va kerakli materiallar kompyuterga saqlab olinadi.

WWW.UZ Milliy axborot-qidiruv tizimi. WWW.UZ – bu barcha foydalanuvchilar uchun yurtimizning Internet tarmog’idagi milliy segmenti axborotlaridan qulay tarzda foydalanish imkoniyatini beruvchi tizimdir. Milliy axborot-qidiruv tizimini rivojlantirish ishlari axborot va kompyuter texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish UZINFOCOM Markazi tomonidan olib boriladi. Milliy axborot-qidiruv tizimining asosiy hususiyatlaridan biri uning ko’p tilli axborot qidiruvi (ruscha, o’zbekcha) va boshqa milliy axborot tizimlari va ma’lumot omborlari bilan o’zaro ishlay olishidadir.


WWW.UZ Internet tarmog’i foydalanuvchilariga milliy sigmentda joylashgan veb-saytlar bo’yicha qidiruv xizmatini taqdim etadi va qidiruvni veb-sayt manzili va ichki ma’lumotlari bo’yicha olib borishi mumkin. Bu esa foydalanuvchiga kerakli bo’lgan axborotni samarali qidirish va topish imkoniyatini beradi.

Bundan tashqari Shu WWW.UZ qidiruv tizimi Internet resurslari (veb-saytlari) katalogini va veb-saytlar reytingi yuritadi, saytlar bo’yicha jamlangan statistik ma’lumotlarni to’playdi hamda axborot texnologiyaari sohasidagi yangiliklar va maqolalarni yoritib boradi.

WWW.UZ “Katalog” bo’limi – Internet tarmog’ida ochiq holda joylashgan, O’zbekiston Respublikasiga aloqador bo’lgan, ro’yxatga olingan, izohlari keltirilgan va katalog mavzulari bo’yicha saralangan veb-saytlar to’plami.


WWW.UZ katalogi foydalanuvchilari o’zlariga kerak bo’lgan saytni mavzular bo’yicha (Iqtisod, OAV, Madaniyat va boshqalar) qidirish orqali tezroq topishlari mumkin. Katalog har kuni qidiruv tizimining faol foydalanuvchilari tomonidan yangi saytlar bilan boyitib boriladi.

Shu bilan birga WWW.UZning har bir foydalanuvchisi “Top-reyting” bo’limiga kirib, barcha ro’yxatga olingan saytlar reytingini ko’rishi, “Jamlangan statistika” bo’limida esa ularning statistikasi bilan tanishib chiqishi mumkin.




2. Axborotlarni qidirish usullari


Mashhur Internet qidiruv tizimlari. Internet tarmog'i yirik ma'lumotlar ombori hisoblanadi. Undan kerakli ma'lumotlarni qidirib topish foydalanuvchining oldiga qo'yilgan eng asosiy masalalardan biridir. Bunday hollarda yirik ma'lumotlar omboridan kerakli ma'lumotlarni qidirib topishda axborot-qidiruv tizimlari muhim ahamiyatga ega. Internet tarmog'ida bunday tizimlarning ko'plab turlarini uchratish mumkin. Bulardan Google, Rambler, Yandex, Yahoo tizimlari o'zbek, rus va ingliz tillarida qidiruvni olib boradigan eng mashhurlari hisoblanadi. Bular:




<http://www.google.ru>



<http://www.rambler.ru>



<http://www.yahoo.com>



<http://www.yahoo.com>

Ushbu mashhur qidiruv tizimlarining har biri oddiy va batafsil kengaytirilgan qidiruv hamda matnli, rasm, musiqa, video va boshqa turli shakldagi axborotlarni qidirish imkoniyatini taqdim etadi. Bu turdagi axborot-qidiruv tizimlaridan foydalanib ixtiyoriy foydalanuvchi o'ziga kerakli bo'lgan ixtiyoriy turdagi ma'lumotni qidirib topishi va undan foydalanishi mumkin. Agar sizga biror ma'lumot kerak bo'lib, lekin siz uning qayerda va qanday ko'rinishda joylashganligini bilmasangiz, u holda shu kabi axborot – qidiruv tizimlaridan foydalaning.

Ixtisoslashgan axborot qidiruv tizimlari. Axborot qidiruv tizimlari – bu veb-sayt hisoblanib Internet tarmog'ida axborotlarni qidirish imkoniyatini taqdim etadi. Bunda yuqorida sanab o'tilganidek Google i Yahoo dunyodagi eng mashhur qidiruv tizimlaridan hisoblanadi. Bizning davlatimizda WWW.UZ axborot-qidiruv tizimi qidiruv so'rovlari bo'yicha ilg'orlardan biridir. Bundan tashqari Internet tarmog'ida ma'lum sohada ishlaydigan ixtisoslashgan qidiruv tizimlari ham mavjud. Bulardan eng ommaboplari:

“KtoTam” – insonlar to'g'risidagi axborotlarni qidirishga mo'ljallangan yangi turdagi axborot-qidiruv tizimi. Bunda insonlarni ismi, sharifi, familiyasi, kasbi, lavozimi va unvoni hamda tashkilot va boshqa insonlar orqali topish mumkin.

“Tagoo” – musiqalarni qidirishga mo'ljallangan qidiruv tizimi. Boshqa qidiruv tizimlariga nisbatan ushbu tizim o'zining kengaytirilgan musiqa bazasidan va boshqa saytlarning mp3 resruslaridan qidirib ularning ro'yxatini shakllantiradi. So'rovda musiqa nomini, uning ijrochisini hamda albom nomlarini ham kiritish mumkin.

“*Truveo*” – Internetning turli resurslaridagi videomateriallarni qidirishga ixtisoslashgan axborot – qidiruv tizimi. Bu tizim orqali on-layn video hamda teledasturlar namoyishlarini ham qidirib topish mumkin.

“*Kinopoisk*” – filmlar to’g’risidagi axborotlarni qidirish tizimi. Qidiruv vaqtida filmning nomi, chiqqan yili, janri, ishlab chiqqan davlat nomi, kompaniya nomi, akterlar ismlari hamda rejisserlar va ssenariy mualliflari ism shariflaridan ham foydalanish mumkin.

“*Ebdb*” – elektron kutubxonalardan kitoblarni qidirishga ixtisoslashgan axborot-qidiruv tizimi. Ushbu saytning ma’lumotlar bazasida elektron ko’rinishda tarqatiladigan adabiyotlarning ko’plab mashhurlari to’plangan. Qidiruv natijalari kitob nomlari bo’yicha guruhlanadi.

“*Ulov-Umov*” – rezyume va vakant joylarni qidirish tizimi. Bunda qidiruv jarayonida karyera va ishga bag’ishlangan hamda ijtimoiy tarmoq va boshqa saytlar vakansiyalari tekshiriladi va ro’yxati shakllantiriladi.

Qidiruv tizimlaridan to’g’ri maqsadda foydalanish. Ha, afsuski, bugungi kunda kompyuterga va internetga yoshlar tomonidan birinchi navbatda ko’ngilochar vosita deb qaralmoqda. Ayniqsa, bolalar kompyuterga ko’zi tushgan zahoti darrov o’yinlarni so’rashadi, ko’pchilik yoshlar esa Internetga ulangani zaxoti esa rasmlar tomosha qilishni so’rashadi.

Internet resurslari xilma-xildir. Ularning ichida ham foydali ham zararli bo’lganlari ma’lumotlar uchraydi. Internet tarmog’idagi axborot-qidiruv tizimlari esa Internet resurslari ichidan so’ralgan ixtiyoriy ma’lumotlarni qidirib topib berish imkoniyatiga ega. Chunki bunday qidiruv tizimlari kalit so’zlar bo’yicha qidirishni amalga oshiradi. Foydalanuvchi tomonidan qanday ma’lumot kiritilsa, xuddi shu ma’lumotga mos ma’lumotlarni qidirib topadi. Shu narsani eslatib o’tish kerakki, har qanday axborot ham foydali va to’g’ri, rost hisoblanavermaydi. Axborot-qidiruv tizimlaridan faqatgina to’g’ri va foydali maqsadda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Turli nojo’ya ma’lumotlardan foydalanishdan va tarqatishdan saqlanish maqsadga muvofiqdir.

3. Internet axborot resurslari. Giperbog’lanish

Linklar-Giperbog’lanishlar

Ma’lumotlar va ularga bo’lgan Giperbog’lanishlarni Internetning asosi deyish mumkin. Butun Internet bo’yicha tarqalgan hujjatlar, Giperbog’lanishlar yordamida bir butun holda foydalanuvchiga yetkazib beriladi. Giperbog’lanishlar sichqoncha tugmasini bosish orqali bir sahifadan boshqasiga o’tish imkoniyatini

beradi. Aynan giperbog'lanishlar barcha Web-sahifalarni yagona tarmoqqa birlashtiradi.

Giperbog'lanishlar tashqi va ichki linklarga bo'linadi.

Tashqi giperbog'lanishlar

Tashqi giperbog'lanishlar HTML-hujjatga `<a>` tegi yordamida joylashtiriladi. `<a>` tegining asosiy parametri **href** bo'lib, u link-ko'rsatkichda sichqoncha tugmasini bosganda yuklanadigan Web-sahifaning URL-manzilini ko'rsatadi. Link-ko'rsatkich matn tarzida

```
<a href= "http://www.sayt.uz/file.html">Matn-link ko'rsatkich</a>
```

[Matn-link ko'rsatkich](http://www.sayt.uz/file.html)

yoki surat ishlatilishi mumkin

```
<a href= "http://www.sayt.uz/file.html"> <img  
src= "http://www.sayt.uz/foto.gif" alt= "Izoh" </a>
```

Faylni yuklab olish: 

Agar URL-manzil matnida "&" belgisi bo'lsa, uni `&` HTML-ekvivalentiga almashtirish zarur.

```
<a href= "index.php?id=5&amp;name=Metka">Matn-link ko'rsatkich</a>
```

Giperbog'lanishda HTML-hujjatdan tashqari surat, arxiv yoki boshqa tipdagi fayllar ham ko'rsatilishi mumkin. Bunday giperbog'lanish (link) orqali o'tishda Brauzer fayl tipiga qarab uni yo ochib ko'rsatadi, yoki qattiq diskka yuklab oladi (taklif etadi).

URL-manzillar absolyut va nisbiy bo'lishi mumkin.

Nisbiy URL-manzil

URL-manzilni nisbiy belgilaganda yo'l giperbog'lanish (link) joylashgan Web-sahifaga nisbatan ko'rsatiladi. Quyidagicha variantlar bo'lishi mumkin:

- kerakli veb-sahifa giperbog'lanish (link) joylashgan sahifa bilan bir papka(direktoriya)da joylashgan bo'lsa, URL-manzilda faqatgina fayl nomi

ko'rsatiladi. Agarda **http://www.sayt.uz/folder/file1.html** manzilda joylashgan sahifadan

http://www.sayt.uz/folder/file2.html sahifaga o'tish kerak bo'lsa, u holda link quyidagicha bo'ladi:

```
<a href="file2.html">Link matni</a>
```

- Agarda **http://www.sayt.uz/folder1/file1.html** manzilda joylashgan sahifadan

http://www.sayt.uz/folder1/folder2/file2.html sahifaga o'tish kerak bo'lsa, u holda link quyidagicha bo'ladi: (Avval boshqa papkaga o'tib, keyin fayl ko'rsatiladi)

```
<a href="folder2/file2.html">Link matni</a>
```

- Agarda **http://www.sayt.uz/folder1/folder2/file1.html** manzilda joylashgan sahifadan

http://www.sayt.uz/folder1/file2.html sahifaga o'tish kerak bo'lsa, u holda link quyidagicha bo'ladi: (Bir pog'ona yuqoriga ko'tarilib, keyin fayl ko'rsatiladi)

```
<a href=" ../file2.html">Link matni</a>
```

- Agarda **http://www.sayt.uz/folder1/folder2/folder3/file1.html** manzilda joylashgan sahifadan **http://www.sayt.uz/folder1/file2.html** sahifaga o'tish kerak bo'lsa, u holda link quyidagicha bo'ladi: (Ikki pog'ona yuqoriga ko'tarilib, keyin fayl ko'rsatiladi)

```
<a href=" ../ ../file2.html">Link matni</a>
```

<a> tegining **target** parametrda **_blank** mohiyati ko'rsatilsa, link bo'yicha sahifa yangi oynada (vkladkada) ochiladi.

Nisbiy URL-manzil ko'rsatilganda, uning o'zi qayerda joylashganligi ahamiyatli bo'ladi. Hujjatni boshqa joyga ko'chirganda yoki undan nusxa olib, boshqa joyga joylashtirganda URL-manzilni o'zgartirishga to'g'ri keladi.

Ichki giperbog'lanishlar

Ichki giperbog'lanishlar orqali joriy veb-sahifaning har xil bo'limlariga link yaratish mumkin. Masalan, sahifa boshida bo'limlar ro'yxatini yozib, uning har bir qatoridan shu bo'limga o'tkazuvchi link hosil qilinadi.

Ichki giperbog'lanish ham `<a>` tegi yordamida yaratiladi. Bunda **href** parametriga URL-manzil emas, balki oldida "#" belgisi qo'yilgan ko'rsatkich (langar) nomi beriladi.

```
<a href="#belgi1">1-bo'lim</a>
```

ko'rsatkich ham `<a>` tegi yordamida hosil qilinib, unda **href** o'rniga ko'rsatkich (langar) nomini belgilaydigan **name** parametri ishlatiladi.

```
<a name="belgi1"></a>
```

Shunday usul bilan boshqa hujjatdagi langarga ham giperbog'lanish hosil qilish mumkin.

```
<a href="http://www.sayt.uz/file.html#belgi6">Matn</a>
```

Bu holda Brauzer oynasida ochiladigan yangi sahifaning aynan kerakli bo'limi ochilishiga erishish mumkin. Ichki giperbog'lanishli hujjatga misol: (Kod:)

```
<!DOCTYPE html>
```

```
<html>
```

```
<head>
```

```
  <title>Ichki linklar hosil qilish</title>
```

```
  <meta http-equiv="Content-Type" content="text/html; charset=utf-8">
```

```
</head>
```

```
<body>
```

```
  <h1>Sarlavha</h1>
```

```
  <h2>Mundarija</h2>
```

```
  <ul>
```

```
    <li><a href="#belgi1">1-Bo'lim</a></li>
```

```
    <li><a href="#belgi2">2-Bo'lim</a></li>
```

```
    <li><a href="#belgi3">3-Bo'lim</a></li>
```

```
    <li><a href="#belgi4">4-Bo'lim</a></li>
```

```
  </ul>
```

```
  <h2><a name="belgi1"></a>1-Bo'lim</h2>
```

```
    <p>1-bo'lim matni</p>
```

```
  <h2><a name="belgi2"></a>2-Bo'lim</h2>
```

```
    <p>2-bo'lim matni</p>
```

```
<h2><a name="belgi3"></a>3-Bo'lim</h2>
<p>3-bo'lim matni</p>
<h2><a name="belgi4"></a>4-Bo'lim</h2>
<p>4-bo'lim matni</p>
</body>
</html>
```

(Brauzerdagi ko'rinishi:)

4.Domen tushunchasi

Sahifa, fayl yoki boshqa resursning Internetda joylashishini aniqlovchi noyob manzil – URL deb ataladi. Internetdagi manzil odatda quyidagi elementlardan tarkib topadi: resursdan foydalanish protokoli (masalan, http://, ftp://) va domen nomi (masalan, domain.uz). Internetdagi manzil, shuningdek, URL-manzil deb ham ataladi.

Kompyuter domen manzilining namunaviy ko'rinishi quyidagicha: http://www.tuit.uz, http://www.aci.uz. Odatda, hujjatlarda manzilni anglatuvchi ma'lumotlarning tagiga chiziladi.

Namunadan ko'rinib turibdiki, kompyuter manzili bir necha qismlardan iborat. O'ng tomondan manzilning birinchi qismi (namunada uz) domenning birinchi sathi deb qabul qilinadi, keyingisi (namunada tuit) – domenning ikkinchi sathi va hokazo. Internetda manzillar ko'p qavatli domen tizimida qurilgan. Birinchi sath domenlar umumjahon mavzular yoki geografik joylar bo'yicha nomlanadi.

Saytlar nomlari quyidagicha umumiy ko'rinishda ifodalanadi:
http://www. sayt nomi. sayt soxasi. davlat kodi.

5.IP texnologiyalar. Mobil internet texnologiyalari

Kompyuter tarmog'ining texnik ta'minoti har xil turdagi kompyuterlar, aloqa kanallari hamda tarmoqning texnik vositalari majmuidan tashkil topgan.

Kompyuter tarmog'ining dasturiy ta'minoti tarmoqqa ulangan xilma-xil kompyuterlar va tarmoq vositalarini yagona standart asosida ishlashni ta'minlovchi dasturlar.

Kompyuter tarmog'ining axborot ta'minoti Internet tarmog'ida mavjud bo'lgan turli elektron hujjatlar, grafik rasm, audio yozuv, video tasvir, veb-sayt va hokazo ko'rinishdagi axborotlar majmuasidan tashkil topgan.

Aloqa yoki tarmoq protokoli nima? Protokol, mazkur vaziyatda kompyuterlar o'rtasida aloqa o'rnatish «tili» deb atalsa to'g'riroq bo'ladi. Tarmoqdagi barcha kompyuterlar bir-biri bilan aloqa qilishlari uchun, ular bitta tilda gaplashishlari lozim, yoki bitta protokoldan foydalanishlari lozim. Sodda qilib aytganda, protokol- bu kompyuter tarmoqlari o'rtasida ma'lumotlarni uzatish qoidalaridir. Internet protokollari sistemasi « TCP/IP protokollari steki» deb nomlanadi. Internetda eng ko'p tarqalgan protokollar quyidagilardir: (tarjima qilish imkoniyati yo'qligi sababli ularning nomlari rus tilida beriladi)
Prikladnoy BGP, DNS, FTP, HTTP, HTTPS, IMAP, LDAP, POP3, SNMP, SMTP, SSH, Telnet, XMPP (Jabber); Seansovyy/Predstavleniya SSL, TLS; Transportnoy TCP, UD; Setevoy EIGRP, ICMP, IGMP, IP, IS-IS, OSPF, RIP; Kanalnoy Arcnet, ATM, Ethernet, Frame relay, HDLC, PPP, L2TP, SLIP, Token ring; OSCAR; CDDDB; MFTP (set eDonkey2000); BitTorrent; Gnutella.



Xozirgi kunda Internetda barcha ma'lumotlardan foydalanishni qulayligini ta'minlovchi bir qancha serverlar xizmat ko'rsatadi. Ularning eng tanilganlari quyidagilardir:

- DNS serveri yoki domen nomlari sistemasi- aloqa to'ridagi raqamli manzillar o'rniga xarfli nomlashni ta'minlaydi.
- E-mail, yoki elektron manzil – bitta abonentni bir yoki bir nechta kishi bilan real vaqtda axborot almashishini ta'minlaydi.
- IRC servisi- real vaqtda matn orqali muloqot qilishni ta'minlaydi (chat);

- Usenet – telekonferensiyalar yoki yangiliklar guruhidir. Uning yordamida jamoa bo'lib axborot almashish mumkin.

- FTP serveri — fayllar arxivi sistemasi bo'lib, turli hildagi fayllarni saqlash va jo'natishni ta'minlaydi;

- Telnet serveri- terminal rejimidagi kompyuterlarni boshqarishni ta'minlaydi.

- World Wide Web (WWW, W3, «Umumjaxon to'ri») — gipermatnli (gipermedia) sistema bo'lib, turli hildagi aloqa resurslarini bitta yahlit ahborot makoniga birlashtiradi.

Internet orqali taqdim etiladigan barcha xizmatlar standart protokollar orqali amalga oshiriladi. **Protokol** qoidani belgilaydi va bu qoida asosida ikkita kompyuter birgalikda harakatlanadi. Ayrim protokollar ma'lumotlar harakatini boshqaradi, ayrimlari xabarlarning butunligini tekshiradi, yana biri esa ma'lumotlarni bir formatdan boshqasiga o'tkazadi. Internet bo'ylab yuborilgan har bir axborot protokol orqali kamida uch daraja bo'ylab o'tadi:

-**Tarmoq daraja** - bunda xabarning bir joydan ikkinchi joyga yetkazilishi kuzatib boriladi.

-**Transport daraja** - bunda uzatiladigan xabarlar butunligi kuzatiladi.

-**Amaliy daraja** - bunda xabarlarning kompyuterdagi formati foydalanuvchi ma'lumotni qabul qilish uchun qulay ko'rinishga o'zgartiriladi.

Internetda quyidagi protokollardan foydalaniladi:

1.IR(Internet Rrotosol) -tarmoqlararo pratakol, ma'lumotlarni alohida paketlarga ajratadi. Bu protokolning muhim vazifalaridan biri - marshrutlashdir (Internet bo'yicha yo'l tanlash.). IP protokoli mantiqiy birikishlarsiz ishlaydi, u xatolarni aniqlamaydi va to'zlatmaydi.

2.TCR (Transmission Control Rrotocol) -transport darajali protokol bo'lib, u paketni to'g'ri yetkazib berishga javob beradi.

Internet IR protokolini va TCR oilasiga mansub protokollardan birini kafolatli qo'llab-quvvatlaydigan ko'plab tarmoqlarni birlashtiradi. U butun bir protokollar oilasini qamrab oladi. Internetda ko'pgina amaliy protokollar mavjud bo'lib, ulardan Mail, telnet, ftr, archie, gorher, WAIS, World Wide Web kabi dasturlar foydalaniladi. Masalan, fayllarni jo'natish protokoli (FTR), olislashgan mashina terminal emulyasiyasi protokoli (telnet), oddiy pochtaning junatish protokoli (SMTR), nomlarning (DNS) domen tizimli protokoli, marshrutlashning axborotlashgan protokoli (RIR) va hokazo.

Internet -bu minglab lokal va mintaqaviy kompyuter tarmoqlarini bir butun qilib birlashtiruvchi butun dunyo kompyuter tarmog'idir. Internet global tarmog'ining asosiy dasturi Internet Explorer bo'lib, u Web sahifalarni ko'rish vositasidir.

Internet o'z-o'zini boshqaruvchi murakkab axborot izim bo'lib, u asosan uchta -texnik, dasturiy va axborotli tarkibiy qismlardan tashkil topgan.

IR - adreslash. TCR/IR tarmog'iga ulangan har bir kompyuter o'zining IR adresiga ega. U 32 razryadli ikqilik son bilan ifodalanadi.

Masalan: 01001011001001001011010010100101. Bunday adresni yodda saqlash qiyin. Shu bois u 8 bitdan iborat 4 blokka bo'linib o'nli sanoq tizimida yoziladi. Ular nuqtalar bilan ajraladi: Misollar: 123.45.67.89; 196.201.90.0

Internetda domenli adreslash. Domen - bu tarmoqdagi hamma - nom xostlar guruhidir. Agar kompyuter va domen nomi ma'lum bo'lsa, ularning manzilgohi haqida aniq tasavurga ega bo'lish mumkin. Nomerlardagi domenlar bir-biridan nuqtalar orqali ajralib turadi. Nomda birinchi o'rinda IR adresli aniq kompyuter - ishchi mashinaning nomi turadi. Masalan: ux.cso.uiuc.edu; nic.ddn.mil; yoyodyne.com.

Internetdagi mavzuli domenlar


Domen	Mavzu belgisi
com - - - - -	Tijorat korxonalari
edu - - - - -	-o'quv muassasasi(masalan Universitet)
mil - - - - -	harbiy muassasalar
net - - - - -	Tarmoq tashkilotlar
orq - - - - -	Boshqa tashkilotlar


Internetdagi geografik domenlar

Domen	Mamlakatlar
au _____	Avstraliya
ca _____	Kanada
de _____	Germaniya
fr _____	Fransiya

ir_____Yaponiya
it_____Italiya
ru_____Rossiya
us_____AQSh


6.Microsoft PowerPoint : animasiya masalalari; tovush, tasvir, matn va harakatlar uyg'unligini ta'minlash

Power Point dasturini yuklash uchun  tugmachasi yordamida  bandiga kiriladi, keyin  va undagi dasturlar ro'yxatidan  ko'rsatkich orqali ajratiladi (1-rasm), so'ngra sichqonchaning chap tugmachasi bosiladi. Umuman olganda dasturni ishga tushirish va undan chiqish boshqa dasturlar(Word, Excel va hokazo) kabi amalga oshiriladi.



1-rasm. Microsoft Power Pointni yuklash.

Power Point dasturi ishga tushganda ekranning birinchi qatorida **Microsoft PowerPoint-[Prezentasiya1]** dastur nomi va ishga tushirilgan fayl nomi, ikkinchi qatorida esa menyu buyruqlari qatori joylashgan. Dastur tashkil qilinayotgan slaydli fayllarga avtomatik ravishda [Prezentasiya1], [Prezentasiya2] va hokazo deb nom beradi. Foydalanuvchi esa bu nomlar o'rniga boshqa ixtiyoriy nom bilan faylni doimiy xotirada saqlashi mumkin. Umuman olganda, fayllar bilan ishlash (saqlash, ishga tushirish va hokazo) buyruqlari boshqa dasturlar kabi amalga oshiriladi.



2-rasm. Microsoft Power Point dasturi ishchi oynasi.

Power Point menyusi bilan ishlash

Microsoft Power Point menyusi **Fayl, Pravka, Vid, Vstavka, Format, Servis, Pokaz slaydov, Okno, Spravka** bo'limlaridan iborat. Menyu buyruqlarini ishga tushirish uchun menyu nomida sichqoncha tugmachasi bosiladi va ekranda vertikal holatda qism menyu buyruqlari paydo bo'ladi.

Menyuning **Fayl** bo'limida yangi slaydni tayyorlash uchun oyna ochish, oldingi saqlangan fayllarni chaqirish, joriy faylni yopish, tayyorlangan hujjatni diskka yozish, yangi oynadagi hujjatni nom berish bilan saqlash, barcha oynalardagi hujjatlarni saqlash, sahifalar parametrini o'rnatish, hisobotni printerda bir nechta nusxada, agar zarurat bo'lganda, slaydning tanlangan joyini chop etish, oxirgi 4 ta tahrir qilingan fayllar nomini ko'rish hamda Power Point dasturidan chiqish kabi ishlarni amalga oshirish mumkin.

Menyuning **Pravka** bo'limida slaydni tahrir qilishga oid bir qator ishlarni amalga oshirish mumkin, ya'ni oldingi holatga o'tish, keyingi holatga o'tish, slayd qismini qirqib olish, ajratilgan qismni nusxalash va o'rniga qo'yish, tozalash, barcha hujjatni belgilash, slaydni o'chirish, belgi yoki matnni almashtirish va hokazo amallarni bajarish mumkin.

Menyuning **Vid** bo'limida slaydlarni tartiblash va namoyish qilish, uskunalar majmuasi bilan ishlash va hokazo ishlarni bajarish mumkin.

Menyuning **Vstavka** bo'limida yangi slayd tashkil qilish, slaydni ko'paytirish, slayd nomeri, sanasi va vaqti, rasmlar, yozuvlar, diagrammalar, jadvallar tashkil qilish, gipermurojaat kabi amallar bajariladi.

Format bo'limida slaydlarni bezash, fon berish, to'g'rilash, slaydlarni belgilash, shriftlarni almashtirish kabi ishlarni amalga oshirish mumkin.

Servis bo'limida hujjatlarning to'g'ri yozilganligini nazorat qilish, hujjat tilini belgilash, belgi va so'zlarni almashtirish, birgalikda ishlashkabi ishlarni amalga oshirish mumkin

Pokaz slaydov bo'limi tashkil etilgan prezentasiya va slaydlarni namoyish qilish, ko'rish, ovoz yozish, animasiyalarni ko'rish, slaydlarni almashtirish, slaydlarni yashirish kabi ishlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Okno bo'limi yordamida yangi oyna ochish, oynalarni tartiblash, oynalarga bo'lish kabi ishlarni bajarish mumkin; shuningdek, bu bo'limda joriy fayllar ro'yxati ham joylashgan.

Spravka bo'limi yordamida Power Pointda dasturida ishlash haqida ma'lumot olish mumkin.

Power Point dasturida ko'rgazmali taqdimot materiallarini tayyorlash

Ko'rgazmali taqdimot(Prezentasiya) tashkil qilish 2 xil yo'l bilan amalga oshirilishi mumkin.

1. **Mastera avtosoderjaniya**(tayyor slaydlar namunasi) yordamida.
2. Foydalanuvchi mustaqil ravishda, o'zi hoxlagan tartibda.

Har qanday ko'rgazmali taqdimot slaydlar to'plamidan iborat

bo'ladi va birinchi slayd uning titul varag'ini tashkil qilishdan boshlanadi.

Slaydning titul varag'ini tashkil qilish. Slayd titul varag'ini tashkil qilish uchun **Fayl→Sozdat→Dizayn prezentasiya** buyrug'i orqali amalga oshiriladi. Ekranda paydo bo'lgan **Zagolovok slayda** darchasiga slayd sarlavhasi, **Podzagolovok slayda** darchasiga esa qism sarlavha yoziladi va **Fayl→Soxranit kak** buyrug'i orqali saqlanadi.